

Vazirlar Mahkamasining  
2024 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son qaroriga  
1-ilova

## **Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglament**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

#### **1-§. Texnik reglamentning maqsadi va uni qo‘llash doirasi**

1. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan uning xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglament (keyingi o‘rinlarda – Texnik reglament) iste’molchilarining oziq-ovqat mahsuloti to‘g‘risida ishonchli ma’lumotga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini ta’minalash maqsadida oziq-ovqat mahsulotiga uni tamg‘alash yuzasidan qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

2. Texnik reglament umumiy ovqatlanish korxonalarini tomonidan tayyorlangan joyida iste’mol qilishga, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan keyinchalik realizatsiya qilmasdan shaxsan iste’mol qilishga mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotiga tatbiq etilmaydi.

3. Agar boshqa texnik reglamentlarda oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini tamg‘alashga nisbatan talablar belgilangan bo‘lsa, u holda oziq-ovqat mahsulotlarining ushbu turlarini tamg‘alash amal qilishi ularga joriy etiladigan barcha texnik reglamentlarning talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

#### **2-§. Atamalar va ta’riflar**

4. Texnik reglamentni qo‘llash maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta’riflardan foydalilanadi:

**oziq-ovqat mahsuloti tayyorlangan sana** – oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish texnologik jarayoni to‘liq tugallangan sana;

**tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)** – oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqaruvchi va uning Texnik reglament talablariga muvofiqligi uchun mas’ul bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**oziq-ovqat mahsulotining farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi ma’lumot** – oziq-ovqat mahsulotining xossalari mavjudligidan dalolat beruvchi, uni boshqa oziq-ovqat mahsulotidan farqlash (shu jumladan, ozuqaviy qiymati, kelib chiqish joyi, tarkibi, boshqa xossalari) imkonini beruvchi oziq-ovqat mahsuloti to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

**ilova varaq** – tamg‘a qo‘yiladigan va iste’mol qadog‘iga va (yoki) transport qadog‘iga joylashtiriladigan yoxud iste’mol qadog‘iga va (yoki) transport qadog‘iga ilova qilinadigan axborot manbai;

**oziq-ovqat mahsulotining tamg‘asi** – iste’mol qadog‘iga, transport qadog‘iga, ilova varaqqa, etiketkaga yoki yorliqqa tushiriladigan yozuvlar, rasmlar, belgilar, ramzlar, boshqa belgilar va (yoki) ularning kombinatsiyalari tarzidagi oziq-ovqat mahsuloti to‘g‘risidagi ma’lumot;

**oziq-ovqat mahsuloti** – oziq-ovqat xomashyosi, (shu jumladan, etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan, alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar;

**oziq-ovqatlar** – oziq-ovqat xomashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

**iste'molchi** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan faqat shaxsiy, oilaviy, uy ehtiyojlari va boshqa ehtiyojlar uchun buyurtma berish yoki sotib olish niyatidagi yoxud oziq-ovqat mahsulotiga buyurtma beruvchi, sotib oluvchi yoki undan foydalanuvchi jismoniy shaxs;

**iste'mol qadog'i** – mahsulotni birlamchi qadoqlash va pirovard iste'molchiga sotish uchun mo'ljallangan qadoq;

**oziq-ovqat mahsulotini sotib oluvchi** – oziq-ovqat mahsulotini istalgan maqsadlarda foydalanish uchun sotib oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan, iste'molchi;

**oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati** – oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) – bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog'ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda, u foydalanishga yaroqli bo'lib turadi, bu muddat tamom bo'lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo'lib qolishi mumkin;

**tovar belgisi** – turli yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yaratilgan oziq-ovqat mahsulotini farqlash uchun xizmat qiladigan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgi;

**transport qadog'i** – oziq-ovqat mahsulotini saqlash va tashish, shuningdek, joyini o'zgartirishda uni shikastlanishdan himoya qilishni ta'minlash uchun mo'ljallangan va mustaqil transport birligini hosil qiladigan qadoq;

**qadoqlangan oziq-ovqat mahsuloti** – iste'mol qadog'iga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsuloti;

**qadoq** – oziq-ovqat mahsulotini joylashtirish, himoya qilish, tashish, saqlash, va mahsulot to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni namoyish qilish uchun mo'ljallangan material;

**etiketka** – tamg'a bosiladigan va iste'mol qadog'iga va (yoki) transport qadog'iga, shu jumladan, yelimlash yo'li bilan mahkamlanadigan axborot manbai;

**yorliq** – qadoqqa mahkamlanadigan tamg'alashni tushirish uchun mo'ljallangan axborot manbai;

**oziq-ovqat mahsulotining ixtiro qilingan nomi** – oziq-ovqat mahsuloti nomini to'ldirishi mumkin bo'lgan so'z yoki ibora. Oziq-ovqat mahsulotining ixtiro qilingan nomi uning iste'mol xususiyatlarini aks ettirmasligi va oziq-ovqat mahsuloti nomini almashtirmasligi kerak;

**ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili** – belgilangan tartibda mamlakatda ro'yxatdan o'tgan va mahsulotni muomalaga chiqarish, muvofiqligini tasdiqlash va

Texnik reglamentga mos kelishini ta'minlashda ishlab chiqaruvchi nomidan harakatlarni amalga oshiruvchi mas'ul yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

## **2-bob. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga qo‘yiladigan talablar**

### **1-§. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga qo‘yiladigan umumiyl talablar**

5. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash tushunarli, oson o‘qiladigan, ishonchli bo‘lishi va sotib oluvchilarni chalg‘itmasligi kerak, yozuvlar, belgilar, ramzlar tamg‘a bosiladigan fondan keskin farq qilishi kerak. Tamg‘a bosish usuli tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan belgilangan saqlash shartlariga rioya qilinganda oziq-ovqat mahsuloti yaroqliligining butun muddati mobaynida uning saqlanishini ta’minalashi kerak.

6. Oziq-ovqat mahsuloti davlat tilidagi yozuvlar tarzida tamg‘alanadi, ma’lumotlarni boshqa tillarda takrorlashga yo‘l qo‘yiladi.

Eksportga yuklab jo‘natiladigan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash import qiluvchi mamlakat tilida yozilishi mumkin.

7. Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga texnik reglamentlarda oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga, shu jumladan, nomini, tayyorlangan sanasini, yaroqlilik muddatini, oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymatini ko‘rsatish yuzasidan Texnik reglament talablariga zid bo‘lmagan qo‘shimcha talablar belgilanishiga yo‘l qo‘yiladi.

### **2-§. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga qo‘yiladigan talablar**

8. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- a) oziq-ovqat mahsulotining nomi;
- b) oziq-ovqat mahsulotining tarkibi (mazkur Texnik reglamentning 28-bandida ko‘zda tutilmagan hollardan tashqari va agar oziq-ovqat mahsulotining alohida turlariga O‘zbekiston Respublikasining texnik reglamentlarida boshqa holatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa);
- v) oziq-ovqat mahsulotining miqdori;
- g) oziq-ovqat mahsuloti tayyorlangan sana;
- d) oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati. Yaroqlilik muddati o‘rash xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti uchun qadoq ochilgandan keyin saqlash muddati ham ko‘rsatiladi;
- ye) qadoqlovchi korxona qadoqlagan sana;
- j) tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan belgilangan yoki oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga texnik reglamentlarda nazarda tutilgan oziq-ovqat mahsulotini saqlash shartlari. Saqlash shartlari o‘rashning xususiyatiga bog‘liq

bo‘lgan oziq-ovqat mahsuloti uchun qadoq ochilgandan keyin saqlash shartlari ham ko‘rsatiladi;

z) ishlab chiqarilgan mamlakat (oziq-ovqat mahsuloti kelib chiqqan joyning nomi), tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning nomi va joylashgan joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida import qiluvchi tashkilotning nomi va joylashgan joyi, shuningdek, mavjud bo‘lganda, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili nomi va joylashgan joyi;

i) foydalanish, shu jumladan, agar ushbu tavsiyalar yoki cheklashlardan foydalanmasdan uni tayyorlash qiyinchilik tug‘dirgan, yoxud iste’molchining sog‘lig‘iga, uning mol-mulkiga zarar yetkazishi, oziq-ovqat mahsulotining iste’mol xossalari pasayishiga yoki yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatda oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar va (yoki) cheklashlar;

k) oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymati ko‘rsatkichlari;

l) oziq-ovqat mahsulotining mo‘ljallanganligi (bolalarbop ovqat va parhez oziq-ovqatga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan mahsulotlar uchun);

m) yog‘li-moyli mahsulotlar uchun – trans-yog‘ kislotalari, ichimliklar uchun – shakar va rang beruvchilar mavjudligi (38-bandda ko‘rsatilgan rang beruvchilarni o‘z ichiga olgan mahsulotlar uchun), non-bulka mahsulotlari, go‘sht, konserva va sut mahsulotlari uchun retseptura bo‘yicha tuz va trans-yog‘ kislotalari mavjudligi;

n) oziq-ovqat mahsulotlarida genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar (keyingi o‘rinlarda – GMO) yordamida olingan komponentlarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot;

o) oziq-ovqat mahsulotlari qadog‘ining old tomoniga ularning kaloriyaligi, tarkibidagi tuz, qand va yog‘ miqdoriga qarab maxsus baholash belgisi qo‘yilishi lozim (2025 yil 1 yanvariga qadar ixtiyoriy ravishda. Bunda, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdorini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz yoki zararli ekanligini belgilash hamda maxsus baholash belgisini oziq-ovqat mahsulotlari qadog‘ida ko‘rsatish qoidalari va ushbu belgi majburiy qo‘yilishi shart bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini belgilash Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi);

p) muvofiqlik belgisi.

9. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda qo‘srimcha ma’lumotlar, shu jumladan, oziq-ovqat mahsuloti unga muvofiq ishlab chiqarilgan hujjat to‘g‘risidagi ma’lumotlar, oziq-ovqat mahsulotining ixtiro qilingan nomi, tovar belgisi, tovar belgisiga bo‘lgan eksklyuziv huquq egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, joy nomini o‘z ichiga olishi, oziq-ovqat mahsulotlarining kelib chiqishi, litsenziyachining joylashgan joyi, ixtiyoriy sertifikatlash tizimlarining belgilari ko‘rsatilishi mumkin.

10. Tarkibida 150 mg/1 dan ortiq miqdorda bo‘lgan kofein va (yoki) inson organizmiga quvvat beruvchi ta’sir ko‘rsatish uchun yetarli miqdorda bo‘lgan dorivor o‘simliklar va ularning ekstraktlari mavjud alkogolsiz ichimliklar “18

yoshgacha bolalar, homiladorlar, emizikli onalar, yuqori asabiy qo‘zg‘atuvchanlik, uyqusizlik va yuqori arterial qon bosimi mavjud insonlarning iste’mol qilishi tavsiya etilmaydi” degan yozuv bilan tamg‘alanishi kerak.

11. Oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alashdagi ma’lumotlar davlat tilida bayon qilinadi. Mazkur ma’lumot yana boshqa tillarda ham bayon etilishi mumkin, bunda uning mazmuni davlat tilidagi ma’lumot mazmuni bilan bir xil bo‘lishi lozim.

12. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha mazkur Texnik reglament talablariga zid bo‘lmagan qo‘shimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun O‘zbekiston Respublikasining texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

### **3-§. Transport qadog‘iga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga qo‘yiladigan talablar**

13. Oziq-ovqat mahsuloti joylashtirilgan transport qadog‘i tamg‘asida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- a) oziq-ovqat mahsulotining nomi;
- b) oziq-ovqat mahsulotining miqdori va massasi;
- v) oziq-ovqat mahsuloti tayyorlangan sana;
- g) oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati;
- d) oziq-ovqat mahsulotini saqlash shartlari;
- ye) oziq-ovqat mahsuloti turkumini (masalan, oziq-ovqat mahsuloti turkumi raqamini) taqqoslash imkonini beruvchi ma’lumotlar;
- j) oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarilgan mamlakat (oziq-ovqat mahsuloti kelib chiqqan joyning nomi), tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning nomi va joylashgan joyi.

Agar transport qadog‘iga tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan keyinchalik qadoqlash uchun mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsuloti (konfetlar, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari) iste’mol qadog‘isiz joylashtirilgan taqdirda, bunday oziq-ovqat mahsuloti joylashtirilgan transport qadog‘ini tamg‘alash mazkur Texnik reglamentning 8-bandni talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

14. Agar transport qadog‘iga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotining iste’mol qadog‘iga bosilgan tamg‘a transport qadog‘i yaxlitligi buzilmagan holda iste’molchilar e’tiboriga yetkazilishi kerak bo‘lgan taqdirda, transport qadog‘ini tamg‘alamaslikka yo‘l qo‘yiladi.

15. Transport qadog‘iga joylashtirilgan oziq-ovqat tamg‘asida qo‘shimcha ma’lumotlar, shu jumladan, oziq-ovqat mahsuloti unga muvofiq ishlab chiqilgan hujjat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, oziq-ovqat mahsulotining ixtiro qilingan nomi, tovar belgisi, tovar belgisiga bo‘lgan eksklyuziv huquq egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, joy nomini o‘z ichiga olishi, oziq-ovqat mahsulotlarining kelib

chiqishi, litsenziyachining joylashgan joyi, ixtiyoriy sertifikatlash tizimlarining belgilari ko'rsatilishi mumkin.

16. Mazkur Texnik reglamentning 11-bandida nazarda tutilgan va transport qadog'iga joylashtiriladigan ma'lumotlar davlat tilida bayon qilinadi. Mazkur ma'lumot yana boshqa tillarda ham bayon etilishi mumkin, bunda uning mazmuni davlat tilidagi ma'lumot mazmuni bilan bir xil bo'lishi lozim.

17. Transport vositalarida qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg'alashga qo'yiladigan, mazkur Texnik reglament talablariga zid bo'limgan qo'shimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun O'zbekiston Respublikasining alohida texnik reglamentlarida belgilanishi mumkin.

#### **4-§. Oziq-ovqat mahsulotining nomini shakllantirishga qo'yiladigan umumiyl talablar**

18. Tamg'alashda ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotining nomi uni oziq-ovqat mahsuloti sifatida yetarlicha tavsiflashi va uni boshqa oziq-ovqat mahsulotidan farqlash imkonini berishi kerak.

19. Oziq-ovqat mahsulotining ixtiro qilingan nomi (agar mavjud bo'lsa) oziq-ovqat mahsuloti nomiga kiritilishi va uning yaqin atrofida joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining texnik reglamenti kuchga kirishi bilan oziq-ovqat mahsulotining nomi ularning talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlarining nomini belgilashga, mazkur Texnik reglament talablariga zid bo'limgan qo'shimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasining texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

20. Oziq-ovqat mahsulotining fizik xossalari va (yoki) uni qayta ishlashning maxsus usullari to'g'risidagi ma'lumot (qayta tiklangan, dudlangan, marinadlangan, maydalangan, ionlashtiruvchi nur bilan qayta ishlangan, sublimatsiya qilingan oziq-ovqat mahsuloti va u to'g'risidagi shunga o'xshash ma'lumot), agar bunday ma'lumotning mavjud emasligi sotib oluvchini chalg'itishi mumkin bo'lsa, oziq-ovqat mahsulotining nomiga kiritiladi yoki nomning bevosita yaqinida joylashtiriladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan bunday ma'lumotga qo'yiladigan talab oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga texnik reglamentlar bilan belgilanadi.

21. Oziq-ovqat mahsulotining nomida, agar ular yoki ularni qayta ishlash mahsulotlari oziq-ovqat mahsuloti tarkibiga kirmasa, komponentlar ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

22. Agar oziq-ovqat mahsulotining tarkibida xushbo'y hid beruvchidan foydalilanilgan taqdirda, ushbu hid beruvchi bilan almashtirilgan va oziq-ovqat mahsuloti tarkibiga kirmaydigan komponentning nomini mazali

va (yoki) xushbo‘y hidli so‘zlaridan foydalangan holda oziq-ovqat mahsulotining nomiga kiritishga yo‘l qo‘yiladi.

23. Tamg‘alashda qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotining nomida “funksional, parhezli, diabetik, bolalarbop ovqat” ta‘riflari, shuningdek, har qanday rasm yoki multfilm yoki kino qahramonlarining nomlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda ko‘rsatiladi. Tamg‘alashda yoki mahsulotning dizaynida bolalar ovqatiga bo‘lgan munosabat belgilardan (bolalar tasvirlari, multfilm qahramonlari va boshqalar), shuningdek, mahsulot bolalar uchun mo‘ljallangan degan taassurot qoldiradigan nomlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, agar mahsulotning xususiyatlari bolalar ovqatlari Maxsus texnik xavfsizlik qoidalari talablariga javob bermasa.

24. Oziq-ovqat mahsulotining nomida faqat oziq-ovqat mahsulotining organik usulda ishlab chiqarishga muvofiqligi rasman tasdiqlangan taqdirda, “ECO” so‘zi ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yiladi.

#### **5-§. Tamg‘alashda oziq-ovqat mahsulotining tarkibini ko‘rsatishga qo‘yiladigan umumiyl talablar**

25. Oziq-ovqat mahsuloti tarkibiga kiradigan komponentlar, agar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga texnik reglamentlar talablariga ko‘ra o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish paytida ularning massa ulushi kamayishi tartibida ko‘rsatiladi. Ushbu komponentlar ko‘rsatilishidan bevosita oldin “Tarkibi” yozuvi joylashtirilishi kerak.

26. Oziq-ovqat mahsulotida tarkibli komponent (2 va undan ortiq komponentlardan iborat) mavjud bo‘lganda oziq-ovqat mahsuloti tarkibidan mazkur Texnik reglamentning 22-bandi talablariga rioya qilingan holda bunday tarkibli komponent tarkibiga kiradigan barcha komponentlar ro‘yxati yoki tarkibli komponentga qavslarda kamayib borish tartibida ularning massa ulushi qo‘sishma qilingan holda tarkibli komponent ko‘rsatiladi.

Agar tarkibli komponentning massa ulushi 2 va undan kam foizni tashkil etgan taqdirda, unga kiradigan komponentlarni ko‘rsatmaslikka yo‘l qo‘yiladi, oziq-ovqat qo‘sishchalari, xushbo‘y hid beruvchilar va ularning tarkibiga kiradigan oziq-ovqat qo‘sishchalari, biologik faol moddalar va dorivor o‘simliklar, GMOni qo‘llash orqali olingan komponentlar, shuningdek, mazkur Texnik reglamentning 32-bandida ko‘rsatilgan komponentlar bundan mustasno.

27. Oziq-ovqat mahsulotida massa ulushi 2 va undan kam foizni tashkil etadigan komponentlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ularni, agar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga boshqa texnik reglamentlar bilan o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, massa ulushi 2 foizdan ortiqni tashkil etadigan komponentlardan keyin istalgan ketma-ketlikda ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi.

28. O‘zida oziq-ovqat mahsulotini ifodalaydigan komponentning nomi mazkur Texnik reglamentning 4-§i talablariga muvofiq oziq-ovqat mahsuloti tarkibida ko‘rsatiladi.

Mazkur Texnik reglamentga 1-ilovada nazarda tutilgan komponentlarning nomlari oziq-ovqat mahsuloti tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari tegishli turlarining nomi ostida ko‘rsatilishi mumkin, bunday komponentlar nomi oziq-ovqat mahsulotining nomida foydalanilgan hollar bundan mustasno.

29. Agar oziq-ovqat tarkibida xushbo‘ylashtiruvchi vosita mavjud bo‘lsa, yorlig‘ida “xushbo‘ylashtiruvchi vosita (lar)” so‘zları bo‘lishi kerak. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibidagi xushbo‘ylashtiruvchilarga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining ixtiro qilingan nomi ko‘rsatilmasligi mumkin.

30. Oziq-ovqat mahsuloti tarkibida oziq-ovqat qo‘srimchasi mavjud bo‘lgan taqdirda, oziq-ovqat qo‘srimchasing funksional (texnologik) vazifasi (kislotalik regulyatori, stabilizator, emulgator, boshqa funksional (texnologik) vazifasi) va nomi ko‘rsatilishi kerak, ular Xalqaro raqamli tizimiga (INS) va Yevropa (E) raqamli tizimiga muvofiq oziq-ovqat qo‘srimchasi indeksi bilan almashtirilishi mumkin.

Agar oziq-ovqat qo‘srimchasi har xil funksional maqsadga ega bo‘lsa, undan foydalanish maqsadlariga muvofiq bo‘lgan funksional vazifa ko‘rsatiladi. Oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarishda komponent sifatida foydalaniladigan uglerod ikki oksidi oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda “Gazlashtirilgan” yozushi kiritilgan taqdirda, oziq-ovqat mahsuloti tarkibida ko‘rsatilishi talab etilmaydi.

31. Quyidagilarga nisbatan oziq-ovqat mahsulotining tarkibini ko‘rsatish talab etilmaydi:

a) yangi uzilgan mevalar (shu jumladan, rezavor mevalar) va po‘sti olib tashlanmagan, kesilmagan yoki bunday usulda qayta ishlanmagan sabzavotlar (shu jumladan, kartoshka);

b) oziq-ovqat xomashyosining bir turidan olingan sirka (boshqa komponentlar qo‘silmagan holda);

v) oziq-ovqat mahsulotining nomi bunday komponent mavjudligini aniqlash imkonini berishi sharti bilan bitta komponentdan iborat oziq-ovqat mahsuloti.

32. Mazkur Texnik reglamentning 34-bandida ko‘rsatilgan holatlardan tashqari quyidagilar komponentlarga tegishli bo‘lmaydi va oziq-ovqat mahsulotining tarkibida ko‘rsatilmaydi:

a) oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida oziq-ovqat mahsulotining tarkibida ko‘rsatilgan komponentlardan chiqarib tashlanadigan va ishlab chiqarish texnologik jarayonining keyingi bosqichida ushbu birlamchi moddalarning miqdoridan ortiq bo‘lmagan miqdorda oziq-ovqat mahsulotiga qo‘shiladigan moddalar;

b) bir yoki bir necha komponentlar tarkibiga kiradigan va bunday komponentlar mavjud bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotining xossalari ni o‘zgartirmaydigan moddalar;

v) aniq bir oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologik yordamchi vositalar;

g) erituvchilar, xushbo‘y hid beruvchilarning ta’mini beruvchilar yoki xushbo‘y hid beruvchi oziq-ovqat qo‘sishimchalari tarkibiga kiradigan moddalar;

d) agar:

oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida konsentratlangan, quyuq yoki quruq oziq-ovqat mahsulotlarini tiklash uchun ishlatilsa;

oziq-ovqat mahsuloti tarkibida ko‘rsatilgan suyuq komponentning (shu jumladan, bulon, marinad, rassol, sirop, tuzlik) tarkibiga kirsa, oziq-ovqat mahsuloti tarkibida suv ko‘rsatilmasligi mumkin.

33. Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida konsentratsiyalashgan quyuqlashtirilgan yoki quruq oziq-ovqat mahsulotidan qayta tiklangan komponentlarni ular qayta tiklangandan keyin ularning massa ulushiga muvofiq ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi.

34. Mevalar (shu jumladan, rezavor mevalar), sabzavotlar (shu jumladan, kartoshka), yong‘oqlar, o‘tlar, qo‘ziqorinlar, tegishli aralashmalar tarkibiga kiradigan va massa ulushi bo‘yicha jiddiy farq qilmaydigan shirinliklar, ziravorlar “o‘zgaradigan nisbatlarda” yozuvi ko‘rsatilgan holda istalgan izchillikda oziq-ovqat mahsuloti tarkibida ko‘rsatilishi mumkin.

35. Tarkibiga shirinlashtiruvchilar, shakar-spirtlar kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bevosita oziq-ovqat mahsulotining tarkibi ko‘rsatilganidan keyin “Tarkibida shirinlashtiruvchi (shirinlashtiruvchilar) mavjud. Haddan tashqari iste’mol qilinishida bo‘shashtiruvchi ta’sir ko‘rsatishi (ko‘rsatishlari) mumkin” yozuvi bilan to‘ldirilishi kerak.

36. Iste’mol qilinishi allergik reaksiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki mazkur Texnik reglamentning 37-bandida ko‘rsatilgan kasalliklarning ayrim turlariga nisbatan iste’mol qilish nojoiz bo‘lgan komponentlar (shu jumladan, oziq-ovqat qo‘sishimchalari, xushbo‘y hid beruvchilar), biologik faol qo‘sishimchalar ularning miqdoridan qat’i nazar, oziq-ovqat mahsuloti tarkibida ko‘rsatiladi.

37. Quyidagilar iste’mol qilinishi allergik reaksiya keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan yoki kasalliklarning ayrim turlariga chalingan bemorlarning iste’mol qilishi nojoiz bo‘lgan eng ko‘p tarqalgan komponentlarga tegishlidir:

a) yeryong‘oq va uni qayta ishlash mahsulotlari;

b) aspartam, aspartam-asesulfam tuzi;

v) xantal va uni qayta ishlash mahsulotlari;

g) agar ularning umumiyligi hajmi oltingugurt dioksidiga qayta hisoblab chiqishda bir kilogrammga 10 milligrammdan ortiqni yoki 1 litrga 10 milligrammdan ortiqni tashkil etsa, oltingugurt dioksid va sulfitlar;

d) tarkibida glyuten bo‘lgan o‘tlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari;

ye) kunjut va uni qayta ishlash mahsulotlari;

j) lyupin (bo‘rilukkak) va uni qayta ishlash mahsulotlari;

z) mollyuskalar va ularni qayta ishlash mahsulotlari;

- i) sut va uni qayta ishlash mahsulotlari (shu jumladan, lakteza);
- k) yong‘oq va uni qayta ishlash mahsulotlari;
- l) qisqichbaqasimonlar va ularni qayta ishlash mahsulotlari;
- m) baliq va uni qayta ishlash mahsulotlari (tarkibida vitaminlar va karotinoidlar mavjud bo‘lgan preparatlarda asos sifatida foydalaniladigan baliq jelatinidan tashqari);
- n) selderey va uni qayta ishlash mahsulotlari;
- o) soya va uni qayta ishlash mahsulotlari;
- p) tuxum va uni qayta ishlash mahsulotlari.

38. Komponentlarning allergen xossalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda ko‘rsatish talab etilmaydi, oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarishda ulardan foydalanilgan taqdirda, uning tarkibi ko‘rsatilgandan keyin “Fenilalanin manbai mavjud” yozuvi joylashtirilishi kerak bo‘lgan tuzning aspartami va aspartam-asesulfami to‘g‘risidagi ma’lumotlar bundan mustasno.

39. Tarkibida donli komponentlar mavjud bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun mahsulot tarkibi ko‘rsatilgandan keyin, agar tarkibida glyuten mavjud bo‘lgan donli komponentlardan foydalanilmagan yoki glyuten olib tashlangan taqdirda “Tarkibida glyuten mavjud emas” degan yozuvni joylashtirishga yo‘l qo‘yiladi.

40. Agar mazkur Texnik reglamentning 37-bandida belgilangan komponentlardan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanilmagan, biroq ularning oziq-ovqat mahsulotida mavjudligi to‘liq istisno etilmagan hollarda bunday komponentlar mavjud bo‘lishi to‘g‘risidagi ma’lumot bevosita oziq-ovqat mahsulotining tarkibi ko‘rsatilgandan keyin joylashtiriladi.

41. Tarkibida rang beruvchilar (E122 azorubin, Ye104 sariq xinolin, FCF E110 sariq “quyosh botishi”, AS Ye129 qizil maftunkor, 4R Ye124 ponso va Ye102 tartrazin) oziq-ovqat mahsulotlari uchun “Tarkibida rang beruvchi (rang beruvchilar) mavjud, ular bolalarning faolligiga va diqqatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin” degan ogohlantiruvchi yozuv yozilishi kerak.

Alkogolli ichimliklar va tamg‘alash uchun ko‘rsatib o‘tilgan rang beruvchilardan foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlari (so‘yilgan mol go‘shti, go‘sht mahsulotlari, tuxum) bundan mustasno.

#### **6-§. Tamg‘alashda qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori ko‘rsatilishiga qo‘yiladigan umumiyl talablar**

42. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori ushbu mahsulotni tamg‘alashda hajm (millilitr, santilitr yoki litrlarda), massa (grammlar yoki kilogrammlarda) yoki sanoq (donalarda) birliklarida ko‘rsatiladi. Bunda ushbu birliklarning qisqartirilgan nomidan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Donalab sotiladigan tuxum, meva, sabzavotlarning massasi yoki hajmi ko‘rsatilmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

43. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining miqdorini ko'rsatish uchun miqdorni tanlash, donalab sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno, agar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga boshqa texnik reglamentlarda o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, quyidagi qoidalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi:

- a) agar oziq-ovqat mahsuloti suyuq bo'lsa, u holda uning hajmi ko'rsatiladi;
- b) agar oziq-ovqat mahsuloti kukunsimon, qayishqoq yoki qayishqoq-plastik konsistensiyali bo'lsa, u holda yoxud uning hajmi yoxud massasi ko'rsatiladi;
- v) agar oziq-ovqat mahsuloti qattiq, sochiluvchi bo'lsa, qattiq va suyuq moddaning aralashmasidan iborat bo'lsa, u holda uning massasi ko'rsatiladi.

Oziq-ovqat mahsulotining sonini ko'rsatish uchun ikkita miqdordan ayni bir vaqtida foydalanishga yo'l qo'yiladi, masalan, donaning massasi va soni, massa va hajm.

44. Guruh qilib o'rashda oziq-ovqat mahsuloti sonini ko'rsatish quyidagi tarzda amalga oshirilishi zarur:

- a) agar bir nomdag'i oziq-ovqat mahsuloti bir nechta iste'mol qadoqlariga joylashtirilgan bo'lsa, oziq-ovqat mahsulotini guruh qilib o'rashda mahsulotning umumiy soni va iste'mol qadoqlari soni ko'rsatiladi;
- b) agar qadoqlangan oziq-ovqat mahsuloti uchun guruhli qadoqning xossasi oziq-ovqat mahsulotining soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yaxshi ko'rish va iste'mol qadoqlari sonini hisoblash oson bo'lsa, u holda guruhli qadoqda ularning ko'rsatmaslikka yo'l qo'yiladi;
- v) agar qadoqlangan oziq-ovqat mahsuloti har xil turdag'i va nomdag'i va (yoki) turli nomdag'i alohida buyumlardan iborat bo'lgan bir nechta iste'mol qadoqlaridan iborat bo'lsa, u holda qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotini guruhli o'rashda har bir iste'mol qadog'inining nomi va mahsulotlar soni va (yoki) donaning nomi, soni, yoxud har bir buyumning massasi ko'rsatiladi.

45. Transport qadog'iga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotining soni har bir qadoq birligiga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsuloti soni ko'rsatilgan holda hajm (millilitrlar, santilitrlar yoki litrlarda) yoki massa (grammlar yoki kilogrammlarda) birliklarida yoxud transport qadog'idagi o'rash birliklari sonida (donalarda) ko'rsatiladi. Bunda ushbu birliklarning qisqartirilgan nomlaridan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

46. Agar oziq-ovqat mahsuloti suyuq muhitga, masalan suvga, shakarning suvli eritmasiga, oziq-ovqat kislotalarining suvli eritmalariga, tuzning suvli eritmalariga, namakoblarga, sirkaga, mevali yoki sabzavotli sharbatlarga joylashtirilgan taqdirda, oziq-ovqat mahsulotining hajmi yoki massasi suyuq muhit bilan birga ko'rsatilishi bilan birgalikda suyuq muhitga joylashtirilgan oziq-ovqat mahsulotining qo'shimcha hajmi yoki massasi ko'rsatilishi kerak. Ushbu talab keyinchalik muzlatilgan holda suyuq muhitga joylashtiriladigan oziq-ovqat mahsulotiga ham joriy etiladi.

47. Qadoqlangan oziq-ovqat mahsuloti soni noaniq ko'rsatilishiga va qadoqlangan oziq-ovqat mahsuloti soni qiymati diapazoni ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **7-§. Tamg'alashda oziq-ovqat mahsuloti tayyorlangan sanani ko'rsatishga qo'yiladigan umumiyl talablar**

48. Oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashda uning yaroqlilik muddatiga qarab u tayyorlangan sanani ko'rsatish quyidagi so'zlardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

a) 72 soatgacha yaroqli bo'lgan taqdirda soat, kun, oy ko'rsatilgan holda "tayyorlangan sanasi";

b) 72 soatdan uch oygacha yaroqli bo'lganda kun, oy, yil ko'rsatilgan holda "tayyorlangan sanasi";

v) uch oydan va undan ortiq yaroqlilik muddatida oy, yil yoki kun, oy, yil ko'rsatilgan holda "yaroqlilik sanasi";

g) "ishlab chiqarilgan yili" - shakar uchun.

49. "Tayyorlangan sanasi" so'zlaridan keyin oziq-ovqat mahsuloti tayyorlangan sana yoki ushbu sanani iste'mol qadog'iga bosish joyi ko'rsatiladi.

50. Oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashda "Tayyorlangan sanasi" so'zleri "Ishlab chiqarilgan sana" so'zleri yoki so'zning mazmuni bo'yicha shunday so'z bilan almashtirilishi mumkin.

51. Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga texnik reglamentlarga "Tayyorlangan sanasi" so'zleri o'rniga oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayoni tamom bo'lishi sanasini belgilovchi boshqa tushunchalar o'rnatilishi mumkin, masalan, ichimliklarni quyish sanasi, tuxumlarni saralash sanasi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosili yili, yovvoyi holda o'suvchi mevalar, yong'oqlar, asalarichilik mahsulotlari yig'ilgan yil ko'rsatilishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanasini ko'rsatishga oid mazkur Texnik reglament talablariga zid bo'lмаган qo'shimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

### **8-§. Tamg'alashda oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqliligi muddatini ko'rsatishga qo'yiladigan umumiyl talablar**

52. Oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashda uning yaroqliligi muddatini ko'rsatish quyidagi so'zlardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

a) uning yaroqlilik muddati 72 soatgacha bo'lganda soat, kun, oy ko'rsatilgan holda "gacha yaroqli";

b) uning yaroqlilik muddati 72 soatdan uch oygacha bo'lganda kun, oy ko'rsatilgan holda "gacha yaroqli";

v) oy, yil ko'rsatilgan holda "oxirigacha yaroqli" yoki uning yaroqlilik muddati kamida uch oy bo'lganda kun, oy, yil ko'rsatilgan holda "gacha yaroqli".

53. Oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddatini ko'rsatish maqsadida sutkalar, oylar yoki yillar soni ko'rsatilgan holda "Yaroqli" yoxud 72 soatgacha yaroqlilik muddatida soatlar soni ko'rsatilgan holda "Yaroqli" so'zidan foydalanish mumkin.

54. "Gacha yaroqli", "yaroqli", "oxirigacha yaroqli" so'zlaridan keyin yoki oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati yoki ushbu muddatni qadoqqa bosish joyi ko'rsatiladi.

55. Tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan unga nisbatan yaroqlilikning cheklanmagan muddati belgilanadigan oziq-ovqat mahsulotini tamg'alash "Saqlash shart-sharoitlariga rioya qilinganda yaroqlilik muddati cheklanmagan" yozuvi qo'shimcha qilinishi kerak.

56. Oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashda "gacha yaroqli", "yaroqli", "oxirigacha yaroqli" so'zları "yaroqlilik muddati", "gacha iste'mol qilinsin" so'zları yoki mazmuni o'xhash so'zlar bilan almashtirilishi mumkin.

57. Oziq-ovqat mahsulotlarining yaroqlilik muddatini ko'rsatishga oid mazkur Texnik reglament talablariga zid bo'lмаган qo'shimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

### **9-§. Tamg'alashda oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, import qiluvchining nomi va joylashgan joyini ko'rsatishga qo'yiladigan umumiy talablar**

58. Oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning joylashgan joyi tadbirkorlik faoliyati sub'ekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi.

59. Sotib oluvchiga taqdim etiladigan ma'lumotda tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning rasman ro'yxatdan o'tkazilgan nomi va joylashgan joyidan (manzili, shu jumladan, mamlakat) foydalanish zarur. Tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning manzili bilan mos bo'lмаганда ishlab chiqarish(lar) manzili(lari) hamda O'zbekiston Respublikasi hududida sotib oluvchilardan e'tirozlarni qabul qilishga ishlab chiqaruvchining vakolatli vakillari ham (mavjud bo'lganda) ko'rsatiladi.

60. Oziq-ovqat mahsulotining tayyorlovchisi (ishlab chiqaruvchisi) joylashgan joyning nomi to'g'risidagi ma'lumotni tayyorlovchi mamlakatning nomini davlat tilida ko'rsatish sharti bilan oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) joylashgan joy bo'yicha mamlakat tilida (tillarida) ko'rsatishga yo'l qo'yiladi.

61. Ishlab chiqarish bir nechta tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar) tomonidan amalga oshiriladigan oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashda har bir

tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) to‘g‘risidagi ma’lumotni iste’molchilarga yetkazish usuli, masalan, harflar, raqamlar, ramzlardan, boshqacha chizilgan ajratilgan shriftdan foydalanish aniq bir oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchini (ishlab chiqaruvchini) aynan aniqlash imkonini berish sharti bilan har bir tayyorlovchining (ishlab chiqaruvchining) nomi va joylashgan joyi ko‘rsatilishi mumkin.

62. Tayyorlangan joyida qadoqlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari (chakana savdo tashkilotlari tomonidan iste’mol qadog‘iga qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno) mazkur Texnik reglamentning 54-bandida nazarda tutilgan tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) va yuridik shaxs yoki oziq-ovqat mahsulotlarini o‘rashni keyinchalik realizatsiya qilish yoki tadbirkorlikning boshqa sub’ekti buyurtmasi bo‘yicha u tayyorlangan joydan boshqa joyda o‘rashni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud bo‘lishi kerak.

63. Agar ishlab chiqaruvchida ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili mavjud bo‘lsa, ushbu ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili nomi va joylashgan joyi oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda ko‘rsatilishi kerak.

Boshqa mamlakatlardan yetkazib beriladigan qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alashda import qiluvchining nomi va joylashgan joyi ko‘rsatiladi.

#### **10-§. Tamg‘alashda oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymatini ko‘rsatishga qo‘yiladigan umumiy talablar**

64. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda ko‘rsatiladigan uning ozuqaviy qiymati quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi:

- a) energetik qiymati (kaloriyaligi);
- b) oqsillar, yog‘lar, uglevodlar miqdori;
- v) vitaminlar va mineral moddalar miqdori.

65. Xushbo‘y hid beruvchilar, saqich, kofe, mineral suv, shishaga solingan ichimlik suv, oziq-ovqat qo‘srimchalari, xom oziq-ovqat mahsulotlari (qo‘ziqorinlar, hayvonlarning so‘yilgandan keyingi mahsulotlari, parrandalar, baliqlar, sabzavotlar (shu jumladan, kartoshka), mevalar, shu jumladan, rezavor meva), osh tuzi, xushta’m beruvchilar, ziravorlar, sirka, choyning ozuqaviy qiymati, agar oziq-ovqat mahsulotlarining ushbu turlariga boshqa texnik reglamentlarda o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, ko‘rsatilmasligi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga boshqa texnik reglamentlarda nazarda tutilgan hollarda oziq-ovqat mahsulotlari boshqa turlarining ozuqaviy qiymati ko‘rsatilmasligi mumkin.

66. Oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymati oziq-ovqat mahsulotining 100 grammi yoki 100 millilitri va (yoki) bir porsiyasi hisobidan (uni tamg‘alashda bunday porsiyaning soni albatta ko‘rsatilgan holda bir porsiya sifatida ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotining belgilangan soni) keltirilishi kerak.

67. Oziq-ovqat mahsulotining energetik qiymati (kaloriyaliligi) joularda va kaloriyalarda yoki ko‘rsatib o‘tilgan miqdorlarning karra yoki ulushli birliklarida ko‘rsatilishi kerak.

68. Oziq moddalar, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotidagi oqsillar, yog‘lar, uglevodlar miqdori grammlarda yoki ko‘rsatib o‘tilgan miqdorlarning karra yoki ulushli birliklarida ko‘rsatilishi kerak.

69. Oziq-ovqat mahsulotidagi vitaminlar va minerallar miqdori Xalqaro birliklar tizimining (Si) bo‘linmalarida (milligramm yoki mikrogram) yoki O‘zbekiston Respublikasida foydalanish uchun tasdiqlangan boshqa miqdor birliklarida ko‘rsatilishi kerak.

70. Oziq-ovqat mahsulotidagi oqsillar, yog‘lar, uglevodlar miqdori va uning energetik qiymati (kaloriyaliligi) oqsillar, yog‘lar, uglevodlarga va energetik qiymatga (kaloriyalikk) nisbatan ko‘rsatilishi kerak, ular uchun bunday miqdor 100 gramm yoki 100 millilitrda yoxud oziq-ovqat mahsulotining bir porsiyasida (ozuqaviy qiymati 1 porsiya hisobidan keltirilgan holatda) katta yoshli kishilarning oqsillar, yog‘lar, uglevodlar va energiyaga bo‘lgan o‘rtacha sutkalik ehtiyojni aks ettiruvchi miqdorlarning 2 va undan ortiq foizini tashkil etadi. Boshqa hollarda oqsillar, yog‘lar, uglevodlar miqdori va oziq-ovqat mahsulotining energetik qiymati (kaloriyaliligi) tayyorlovchining (ishlab chiqaruvchining) xohishi bo‘yicha ko‘rsatilishi mumkin.

71. Oziq-ovqat mahsulotidagi vitaminlar va mineral moddalar miqdori, agar vitaminlar va mineral moddalar oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish jarayonida unga qo‘silgan bo‘lsa, ko‘rsatilishi kerak. Boshqa hollarda oziq-ovqat mahsulotidagi vitaminlar va mineral moddalar miqdori ular uchun bunday miqdor 100 gramm yoki 100 millilitrda yoxud oziq-ovqat mahsulotining bir porsiyasida (bir porsiya hisobiga ozuqaviy qiymati keltirilgan holatda) katta yoshli kishilarning vitaminlar va mineral moddalarga o‘rtacha sutkalik ehtiyojini aks ettiruvchi miqdorlarning

5 va undan ortiq foizini tashkil etadigan vitaminlar va mineral moddalarga nisbatan ko‘rsatilishi mumkin.

72. Katta yoshli aholi uchun oziq-ovqat moddalari va energiyaga ehtiyojning sutkalik o‘rtacha me’yori mazkur Texnik reglamentga 2-ilovaga muvofiq belgilanadi.

73. Mazkur Texnik reglamentning 68–70-bandlarida ko‘rsatilgan va iste’molchilarning ayrim toifalari uchun mo‘ljallangan qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashda ozuqaviy qiymati ko‘rsatkichlarini ko‘rsatish uchun hisob-kitob iste’molchilarning ushbu toifasi uchun o‘rtacha sutkalik ehtiyoj bo‘yicha yuritiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini ko‘rsatishga oid mazkur Texnik reglament talablariga zid bo‘lmagan qo‘sishimcha talablar ayrim turdagি oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

74. Manbai ushbu biologik faol qo'shimchalar hisoblangan moddalarga nisbatan ozuqaga biologik faol qo'shimchalar uchun, boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun esa – bunday oziq-ovqat mahsulotini boyitish uchun foydalanilgan moddalarga nisbatan mazkur Texnik reglamentga 2-ilovada belgilangan me'yorlarga nisbatan foizlarda qo'shimcha ravishda ozuqaviy qiymati ko'rsatilishi kerak.

75. Tayyorlanishi iste'molchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan, oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatining miqdori, bunday oziq-ovqat mahsulotlarini tamg'alashda uning keyingi tayyorlanishini hisobga olmagan holda ko'rsatiladi.

76. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati ko'rsatkichlari oziq-ovqat mahsulotini tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan tahliliy yoki hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.

77. Oziq-ovqat mahsulotining energetik qiymatini (kaloriyaliligi) va undagi oqsillar, yog'lar miqdorini ko'rsatishda, agar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlariga boshqa texnik reglamentlarda o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, 1 va 2-jadvallarga muvofiq qiymatlarni yaxlitlash qoidalari qo'llaniladi.

#### **1-jadval**

##### **Oziq-ovqat mahsulotlarining energetik qiymatini yaxlitlash qoidalari**

<b>energetik qiymati (kaloriyaliligi), kJ/kcal</b>	<b>Yaxlitlash qiymati</b>
1 dan kam	"1" ko'rsatiladi
1 dan – 5 gacha	Yaqin yaxlit songacha
5 dan – 100 gacha	Yaqin yaxlit songacha, 5 karra
100 dan ortiq	Yaqin yaxlit songacha, 10 karra

#### **2-jadval**

##### **Oziq-ovqat mahsulotidagi oqsillar, yog'lar, uglevodlar miqdori qiymatlarini yaxlitlash QOIDALARI**

<b>Oqsillar, yog'lar, uglevodlar miqdori, g</b>	<b>Yaxlitlash qiymati</b>
0,5 dan kam	Verguldan keyin birinchi o'nlik raqamigacha qiymat ko'rsatiladi
0,5 – 10	Yaqin qiymatgacha, 0,5 karra
10 dan ortiq	Yaqin yaxlit songacha

78. Oziq-ovqat mahsulotining ozuqaviy qiymati ko'rsatkichlariga nisbatan tamg'alashga "O'rtacha qiymatlar" yozushi qo'shimcha qilinishi mumkin.

Qayd etilishi zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotining energetik qiymati (kaloriyaliligi) 3-jadvalga muvofiq asosiy oziq moddalarni oziq-ovqat

mahsulotining energetik qiymatiga (kaloriyaliliga) qayta hisoblab chiqish koeffitsientlaridan foydalangan holda aniqlanadi.

79. Oziq-ovqat mahsulotidagi uglevodlar miqdorini aniqlashda oziq-ovqat mahsulotidagi ularning soni (oziq-ovqat tolalari bundan mustasno) va inson organizmida moddalar almashinishida ishtirok etuvchi, shuningdek, shirin qiluvchilar – shakar – spirtlar miqdori hisobga olinadi.

### **3-jadval**

**Asosiy oziq moddalarini oziq-ovqat mahsulotining  
energetik qiymatiga (kaloriyaligiga) qayta hisoblab chiqish  
KOEFFITSIENTLARI**

<b>Asosiy oziq moddalar</b>	<b>Qayta hisoblab chiqish koeffitsientlari</b>
Oqsillar	4 kcal/g – 17 kJ/g
Uglevodlar, shu jumladan, mono- va disaxaridlar (shakar-spirtlardan tashqari)	4 kcal/g – 17 kJ/g
Shakar-spirtlar (eritritdan tashqari)	2,4 kcal/g – 10 kJ/g
Eritrit	0
Yog‘lar, yog‘li kislotalar	9 kcal/g – 37 kJ/g
Organik kislotalar	3 kcal/g – 13 kJ/g
Salatrim	6 kcal/g – 25 kJ/g
Etanol	7 kcal/g – 29 kJ/g
Oziq tolalar	2 kcal/g – 8 kJ/g

80. A vitamin va A provitamin miqdorini aniqlashda retinolning bir mikrogrammi yoki retinol ekvivalent beta-koratinning 6 ta mikrogrammiga mosligi hisobidan kelib chiqib o‘tkazma koeffitsientdan foydalilanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini ko‘rsatishga oid mazkur Texnik reglament talablariga zid bo‘lmagan qo‘sishimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

**11-§. Tamg‘alashda oziq-ovqat mahsulotining  
farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi axborotni ko‘rsatishga  
qo‘yiladigan umumiyl talablar**

81. Oziq-ovqat mahsulotining farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi ma’lumot mazkur Texnik reglamentga 3-ilovaga muvofiq tamg‘alashda ixtiyorilik asosida ko‘rsatiladi.

82. Oziq-ovqat mahsulotining farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi ma’lumot tamg‘alashda faqat, agar oziq-ovqat mahsulotlarining boshqa texnik

reglamentlarida o‘zgacha hol belgilanmagan bo‘lsa, mazkur belgilar mazkur Texnik reglamentga 3-ilovada keltirilgan shartlarga muvofiq bo‘lganda ko‘rsatilishi mumkin.

83. Oziq-ovqat mahsulotlarining farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi ma’lumot uning ozuqaviy qiymati qismida oziq-ovqat mahsulotining tamg‘asida ozuqaviy qiymatni aniqlovchi mos ozuqaviy moddalar miqdorini ko‘rsatish bilan ilova qilinishi kerak.

84. Oziq-ovqat mahsulotlarining farqlanuvchi belgilari to‘g‘risidagi ma’lumotga oid mazkur Texnik reglament talablariga zid bo‘lmagan qo‘sishimcha talablar oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentida belgilanishi mumkin.

## **12-§. Tamg‘alashni yetkazish usullariga qo‘yiladigan talablar**

85. Mazkur Texnik reglamentning 8-bandiga a) – ye)-kichik bandlarida va 31-bandida nazarda tutilgan ma’lumotlar ularni iste’mol qadog‘idan chiqarib tashlash qiyin bo‘lgan iste’mol qadog‘iga va (yoki) etiketkaga bosilishi kerak.

86. Mazkur Texnik reglamentning 8-bandiga j), z), i), k), l)-kichik bandlarida nazarda tutilgan ma’lumotlar iste’mol qadog‘iga va (yoki) etiketkaga, va (yoki) ilova varaqqa, va (yoki) har bir o‘rash birligiga joylashtiriladigan yoxud har bir o‘rash birligiga ilova qilinadigan ilova varaqqa bosilishi kerak.

Mazkur Texnik reglamentning 2-§ va 3-§ larida ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yorlig‘i tushunarli, o‘qilishi oson bo‘lishi, ishonchli va iste’molchilarni (xaridorlarni) chalg‘itmasligi kerak, yozuvlar, belgilar esa yorliq qo‘llaniladigan fonga qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Etiketkani qo‘llash usuli ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan saqlash sharoitlari hisobga olingan holda, uning oziq-ovqat mahsulotlarining butun yaroqlilik muddati davomida saqlanishini ta’minlashi kerak.

O‘lchamlari ushbu xatboshining to‘rtinchisi va beshinchi xatboshilarida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lgan tamg‘ada ishlatiladigan shriftning tiniqligi va ravshanligi, shuningdek. optik uskunalarni qo‘llamasdan, ko‘rish nuqsonlarini tuzatish uchun ishlatiladiganlardan (ko‘zoynaklar, kontakt linzalar va x.k.) axborotlarni o‘qish imkoniyatini ta’minlovchi tashqari fon rangi va tamg‘aga axborot tushirilgan rang o‘rtasidagi kontrast oson o‘qish me’zonlari hisoblanadi.

87. Agar oziq-ovqat mahsuloti iste’mol qadog‘ining katta yuzasi maydoni 10 kvadrat santimetrdan ortiq bo‘lmasa, mazkur Texnik reglamentning 8-bandida nazarda tutilgan ma’lumotlar iste’mol qadog‘iga va (yoki) etiketkaga, va (yoki) har bir iste’mol qadog‘iga, yoki har bir transport qadog‘iga joylashtiriladigan, yoxud har bir iste’mol qadog‘iga yoki har bir transport qadog‘iga ilova qilinadigan ilova varaqqa bosilishi kerak.

Mazkur Texnik reglament 8-bandining a), v), g) kichik bandlarida (ishlab chiqarilgan sana va (yoki) ishlab chiqarilgan sanani tushirish joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (agar bunday ma’lumotlar mavjud bo‘lsa) ko‘rsatish uchun ishlatiladigan so‘zlardan tashqari) va d) kichik bandida nazarda tutilgan

ma'lumotlar (yaroqlilik muddatini va (yoki) yaroqlilik muddatini tushirish joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni (agar bunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa) ko'rsatish uchun ishlataladigan so'zlardan tashqari), balandligi 2 mm dan kam bo'limgan shrift (kichik harflar) bilan ko'rsatilishi kerak.

Mazkur Texnik reglament 8-bandining b), j), z), i) kichik bandlarida (tavsiyalar va (yoki) foydalanishni cheklashlar nuqtai nazaridan) va k) kichik bandda (ixtisoslashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun) ko'rsatilgan ma'lumotlar, shuningdek, sanani ko'rsatish uchun ishlataladigan so'zlar ishlab chiqarilganligi, yaroqlilik muddati va (yoki) ishlab chiqarilgan sananing qo'llanilish joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, yaroqlilik muddati (agar bunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa) balandligi 0,8 mm dan kam bo'limgan shrift (kichik harflar) bilan ko'rsatilishi kerak.

88. Oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlashda chakana savdo tashkilotlari tomonidan iste'molchi mavjud bo'limganda iste'mol qadog'iga yoki unga yopishtirilgan etiketkada oziq-ovqat mahsulotining nomi, uning ishlab chiqarilgan sanasi, uning yaroqlilik muddati va saqlash sharoitlari ko'rsatilishi kerak.

Mazkur Texnik reglamentning 8 va 33-bandlarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar iste'molchiga ushbu oziq-ovqat mahsulotini asosli tanlash imkoniyatini ta'minlaydigan istalgan usul bilan (shu jumladan, iste'mol qadog'iga va (yoki) etiketkaga, va (yoki) har bir qadoqlangan birlikka joylashtiriladigan yoki mahsulotning har bir qadoq birligiga ilova qilinadigan ilova varaqqa bosish yo'li bilan) iste'molchiga yetkaziladi.

89. Mazkur Texnik reglamentning 8 va 33-bandlarida bevosita transport qadog'iga joylashtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, qadoqlash iste'molchi ishtirokida chakana savdo tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan nazarda tutilgan ma'lumotlar iste'molchiga ushbu oziq-ovqat mahsulotini asosli tanlash imkoniyatini ta'minlaydigan istalgan usul bilan yetkaziladi.

90. Mazkur Texnik reglamentning 2-paragrafida nazarda tutilgan bevosita transport qadog'iga joylashtiriladigan oziq-ovqat mahsulotini tamg'alash transport qadog'iga va (yoki) etiketkaga, va (yoki) har bir transport qadog'iga joylashtiriladigan yoki har bir transport qadog'iga ilova qilinadigan ilova varaqqa bosilishi, yoxud oziq-ovqat mahsulotiga ilova qilinadigan hujjatlarda mavjud bo'lishi kerak.

91. Oziq-ovqat mahsulotining tamg'asi iste'mol qadog'ida mavjud bo'limgan yoki oziq-ovqat mahsulotini yoki oziq-ovqat mahsulotining tarkibiy qismini ishlab chiqarishda foydalanimagan, iste'mol qadog'ida joylashgan oziq-ovqat mahsulotining rasmi yoki matnli tavsifiga yoki iste'mol qadog'ida joylashgan oziq-ovqat mahsulotining tarkibiga kiruvchi tarkibiy qismlariga o'xshamaydigan ta'm va (yoki) xidga ega bo'lmasligi kerak, mazkur Texnik reglamentning 85-bandida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

92. Tayyorlashda ushbu oziq-ovqat mahsuloti qo'llaniladigan taomning tasviri tushirilgan oziq-ovqat mahsulotini tamg'alashga "tayyorlangan taom

varianti” so‘zlari yoki mazmuni bir xil bo‘lgan shunday so‘zlar ilova qilinishi kerak.

### **13-§. Oziq-ovqat mahsulotlarida genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlar yordamida olingan komponentlarning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotni tamg‘alashda qo‘yiladigan talablar**

93. GМОдан foydalanish natijasida olingan oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan, tarkibida dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) va oqsil mavjud bo‘lмаган mahsulotlar uchun quyidagi ma’lumotlar taqdim etilishi kerak: “Genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar” yoki “Genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlardan olingan mahsulotlar” yoki “Mahsulotlar genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlarning tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi”.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi muvofiqlik belgisi yonida GМО ishlatilgan holda olingan mahsulotlarni “GМО” yozuvi shaklida tamg‘alashda bir xil shakl va o‘lchamdagи belgi qо‘llaniladi.

94. Genetik modifikatsiyalangan mikroorganizmlardan (bakteriyalar, xamirturush va filamentli zamburug‘lar, genetik muhandislik usullari yordamida o‘zgartirilgan genetik material) (keyingi o‘rinlarda – GMM) olingan yoki ulardan foydalangan holda olingan oziq-ovqat mahsulotlari uchun quyidagi ma’lumotlar talab qilinadi:

jonli GMMni o‘z ichiga olganlar uchun – “Mahsulot tarkibida genetik jihatdan o‘zgartirilgan tirik mikroorganizmlar mavjud”;

hayotga yaroqsiz GMM bo‘lganlar uchun – “Mahsulot genetik modifikatsiyalangan mikroorganizmlar yordamida olinadi”;

texnologik GMMdan ozod bo‘lganlar yoki GMMdan ozod qilingan komponentlar yordamida olinganlar uchun – “Mahsulot tarkibida genetik jihatdan modifikatsiyalangan mikroorganizmlar yordamida olingan komponentlar mavjud”.

95. Oziq-ovqat mahsulotining tamg‘asidagi GМО mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar GМОлардан yoki ulardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan foydalanilgan texnologik yordamchi vositalarga nisbitan ko‘rsatilmaydi.

### **14-§. Bozorda munosabatlар qoidasi**

96. Oziq-ovqat mahsulotlari, agar ularning tamg‘alanishi mazkur Texnik reglamentga, shuningdek, unga tegishli bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining boshqa texnik reglamentlariga mos keladigan bo‘lsa, bozorda muomalaga kiritiladi.

#### **3-bob. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan unga qo‘yiladigan talablarning muvofiqligini ta’minlash**

97. Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashning mazkur Texnik reglament talablariiga muvofiqligi tamg‘alashga qo‘yiladigan uning bevosita talablarini bajarish va oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alashga qo‘yiladigan qo‘srimcha

talablarni belgilovchi oziq-ovqat mahsulotlari ayrim turlariga boshqa texnik reglamentlar talablari bajarilishi bilan ta'minlanadi.

#### **4-bob. O'tish davri**

98. Mazkur Texnik reglament amalga kiritilgan paytdan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan va oziq-ovqat mahsulotini tamg'lashga talablarni belgilaydigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar mazkur Texnik reglamentga muvofiqlashtirilguniga qadar ularning mazkur Texnik reglamentga zid bo'limgan qismlari yuzasidan qo'llaniladi.

#### **5-bob. Texnik reglament talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati**

99. Mazkur Texnik reglament talablariga rioya qilish ustidan davlat nazoratini Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi va uning hududiy organlari, shuningdek, boshqa maxsus vakolatli davlat organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

100. Nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari mazkur Texnik reglament talablariga muvofiq bo'limgan tamg'alangan oziq-ovqat mahsulotlari muomalaga chiqarilishining oldini olish, shuningdek, bunday mahsulotlarni bozorda muomaladan olib qo'yish uchun barcha choralarни ko'rishi shart.

#### **6-bob. Texnik reglamentga rioya qilinmaganligi uchun javobgarlik**

101. Mazkur Texnik reglament talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan  
uning xavfsizligi to‘g‘risidagi  
texnik reglamentga  
1-ilova

**Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida tegishli oziq-ovqat mahsuloti  
turlari nomlari ostida ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan  
tarkibiy qismlar nomi**

Tarkibiy qismlar nomi	Oziq-ovqat mahsuloti turi nomi
Tozalangan moy yoki yog‘lar	Moy yoki yog‘ kelib chiqishini ko‘rsatish bilan: o‘simlik moyi yoki o‘simlik yog‘i yo hayvon moyi yoki hayvon yog‘i
Presslangan, ekstraksiyalangan yoki tozalangan kakao moyi	Kakao moyi
Ozuqaviy mahsulotlarning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan mevalar aralashmalari	Mevalar
Ozuqaviy mahsulotlarning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan reza mevalar	Reza mevalar
Ozuqaviy mahsulotlarning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan shakarlangan mevalar	Shakarlangan mevalar
Ozuqaviy mahsulotlarning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan sabzavotlar aralashmalari	Sabzavotlar
Har qanday turdagи tabiiy asal	Asal
Ikki va ko‘proq turdagи donlardan un aralashmalari	Massa ulushi kamayishi tartibida ishlab chiqarilgan don turlarini ko‘rsatish bilan un
Kraxmallar va fizik vositalar yoki fermentlar bilan modifikatsiya qilingan krazmallar	Kraxmal (qo‘srimcha kelib chiqishi ko‘rsatiladi, masalan – kartoshkali)
Barcha turdagи baliq	Baliq
Ozuqaviy osh tuzi (natriy xlорид)	Tuz
Pishloq yoki pishloqlar aralashmalari	Pishloq
Sut oqsili, kazeinlar, kazeinatlar, zardobli oqsil va ularning aralashmalari	Sut oqsili
Ozuqaviy mahsulotlarning 2 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan xushtamlagichlar	Xushtamlagichlar yoki xushtamlagichlar aralashmasi
Ozuqaviy mahsulotlarning 2 foizidan ko‘p bo‘lmagan massa ulushidan tashkil topgan	Ziravorlar va ziravorlar aralashmasi

<b>Tarkibiy qismlar nomi</b>	<b>Oziq-ovqat mahsuloti turi nomi</b>
ziravorlar	
Saqich ishlab chiqarish uchun foydalilaniladigan dastlabki moddalar	Rezinali asos
Barcha turdag'i saxaroza	Shakar
Suvsiz yoki monogidratli glyukoza	Glyukoza
Barcha turdag'i qiyom	Qiyom yoki glyukozali sharbat
Uzumdan vinolar	Vino
Barcha turdag'i yormalar	Yorma
Soya oqsili (izolyatlar, konsentratlar)	Soya oqsili
Barcha turdag'i tuxum mahsulotlari	Tuxum mahsulotlari

Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan  
uning xavfsizligi to‘g‘risidagi  
texnik reglamentga  
2-ilova

**Katta yoshli aholi uchun oziq-ovqat moddalari va energiyaga  
ehtiyojning sutkalik o‘rtacha me’yori**

<b>Asosiy ozuqaviy moddalar</b>	<b>Tavsiya etilgan sutkalik iste’mol darajasi</b>
Energetik qiymati, kJ/kcal*	10467/2500
Oqsillar, g	75
Yog‘lar, g, shu jumladan, ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar, g	83 11
O‘zlashtiriladigan uglevodlar, g, shu jumladan, shakar (saxaroza), g	365 65
Ozuqaviy tolalar, g	30
Mineral moddalar:	
Kalsiy, mg	1000
Fosfor, mg	800
Temir, mg	14
Magniy, mg	400
Rux, mg	15
Yod, mkg	150
Kaliy, mg	3500
Selen, mg	0,07
Vitaminlar:	
A vitamini, mkg	800
D vitamini, mkg	5**
** xolekalsiferol 5 mkg —D vitaminining 200 ME.	
E vitamini, mg	10
S vitamini, mg	60
Tiamin, mg	1,4
Riboflavin, mg	1,6
Niatsin, mg	18
V <sub>6</sub> vitamini, mg	2
Folatsin, mkg	200
V <sub>12</sub> vitamini, mkg	2,4
Biotin, mg	0,05
Pantoten kislota, mg	6

\*Energetik qiymati joullarda ko‘rsatilganda qayta hisoblash uchun 1 sal 4,1868 J ga teng nisbati qo‘llaniladi.

Oziq-ovqat mahsulotini tamg‘alash yuzasidan  
uning xavfsizligi to‘g‘risidagi  
texnik reglamentga  
3-ilova

**Ixtiyoriy asosda tamg‘ada ko‘rsatiladigan  
ozuqaviy mahsulotlarni farqlanuvchi belgilar to‘g‘risida ma’lumot**

Ozuqaviy qiymati ko‘rsatkichi	Ozuqaviy mahsulotlarni ajratib turadigan belgi	Ozuqaviy mahsulotlar tamg‘alanishida ajratib turadigan belgilar tasvirlanishi mumkin bo‘lgan shartlar
Energetik qiymati (kaloriyaligi)	Pasaytirilgan	Energetik qiymati (kaloriyaligi) o‘xhash ozuqaviy mahsulotning energetik qiymatiga (kaloriyaligiga) nisbatan kamida 30 foizga pasaytirilgan.
Energetik qiymati (kaloriyaligi)	Kam	Energetik qiymati (kaloriyaligi) 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotlar uchun 40 kcal (170 kJ) dan yoki 100 ml suyuqlik uchun 20 kcal (80 kJ) dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Bevosita ovqatda foydalaniladigan shakar o‘rnini bosuvchilar uchun energetik qiymati (kaloriyaligi) 6 g porsiya saxarozaga teng ekvivalent shirinroq qiluvchi xususiyatlari bilan 4 kcal (17 kJ) dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.
Energetik qiymati (kaloriyaligi)	Mavjud emas (kaloriyasiz)	100 ml ga energetik qiymati (kaloriyaligi) 4 kcal (17 kJ) ko‘p bo‘lmasligi kerak. Ekvivalent shirinroq qiluvchi xususiyatlari 6 g saxarozaga teng bo‘lgan, bevosita ovqatda foydalaniladigan shakar o‘rnini bosuvchilar uchun energetik qiymati (kaloriyaligi) 0,4 kcal (1,7 kJ)/porsiya dan ko‘p bo‘lmasligi kerak
Oqsil	Manba	100 g qattiq mahsulotlar uchun yoki 100 ml suyuqliklar uchun oqsil miqdori kunlik oqsil ehtiyojining kamida 5 foizini tashkil etishi sharti bilan oqsil ozuqaviy mahsulotlar energetik qiymatining (kaloriyaligi) kamida 12 foizni ta’minlaydi.
Oqsil	Ko‘p miqdorda	Oqsil ozuqaviy mahsulotning kamida 20 foizini energetik qiymatni (kaloriyaligi) ta’minlaydi.
Yog‘	Kam miqdorda	Yog‘ 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda ko‘pi bilan 3 g yoki 100 ml suyuqlikda ko‘pi bilan 1,5 g dan iborat.
Yog‘	Mavjud emas (yog‘siz)	Yog‘ 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda ko‘pi bilan 0,5 g dan iborat.
To‘yingan yog‘ kislotalari	Kam miqdorda	Ozuqaviy mahsulotlarda to‘yingan yog‘ kislotalari va trans yog‘ kislotalarining yig‘indisi qattiq ozuqaviy mahsulotlar yoki 0,75 g / 100 ml suyuqliklar uchun

Ozuqaviy qiymati ko'rsatkichi	Ozuqaviy mahsulotlarni ajratib turadigan belgi	Ozuqaviy mahsulotlar tamg'alanishida ajratib turadigan belgilar tasvirlanishi mumkin bo'lgan shartlar
		100 g uchun 1,5 g dan ko'p emas va har qanday holatda to'yangan yog' kislotalari va trans yog' kislotalari yig'indisi kaloriyalarining 10 foizidan oshmasligi kerak.
To'yangan yog' kislotalari	Mavjud emas	Ozuqaviy mahsulotdagi to'yangan yog' kislotalari va trans yog' kislotalarining yig'indisi qattiq ozuqaviy mahsulotlar yoki 100 ml ag suyuqlik uchun 0,1 g to'yangan yog' 100 g dan ko'p emas.
Shakarlar (mono va disaxaridlar yig'indisi)	Mavjud emas	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda shakarlar 1,5 g dan ko'p bo'lmasligi kerak.
Shakarlar (mono va disaxaridlar yig'indisi)	Kam miqdorda	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda shakarlar 5 g dan ko'p bo'lmasligi yoki 100 ml suyuqlikda 2,5 g dan ko'p bo'lmasligi kerak.
Shakarlar (mono va disaxaridlar yig'indisi)	Qo'shimchasiz	Ozuqaviy mahsulotni ishlab chiqarishda mono va disaxaridlar tarkibiy qismlar sifatida qo'shilmaydi. Agar tabiatli bo'yicha ozuqaviy mahsulotda shakar mavjud bo'lsa, unda tamg'ada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak: tabiatdan (tabiiy) kelib chiqqan shakardan iborat.
Shakarlar (mono va disaxaridlar yig'indisi)	Tarkibida faqat tabiiy shakar	Ozuqaviy mahsulotlar tarkibida faqat o'ziga xos tabiiy shakarlarning mavjudligi.
Ozuqaviy tolalar	Manba	Ozuqaviy tolalar miqdori 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda 3 g dan kam bo'lmasligi yoki 100 ml suyuqlikda 1,5 g dan kam bo'lmasligi kerak.
Ozuqaviy tolalar	Ko'p miqdorda	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda ozuqaviy tolalar miqdori 6 g dan kam bo'lmasligi yoki 100 ml suyuqlikda 3 g dan kam bo'lmasligi kerak.
Vitaminlar va mineral moddalar	Manba	Vitaminlar va mineral moddalar kattalar uchun 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotga vitaminlar va minerallarga bo'lgan o'rtacha kunlik ehtiyojning kamida 15 foizini yoki 100 ml yoki bitta porsiya uchun suyuqlikda 7,5 foizni tashkil qiladi.
Vitaminlar va mineral moddalar	Ko'p miqdorda	Vitaminlar va mineral moddalar kattalar uchun 100 g qattiq ozuqaviy mahsulot yoki 100 ml yoki har bir suyuqlik uchun suyuqliklar uchun vitaminlar va mineral moddalarga bo'lgan o'rtacha kunlik ehtiyojning kamida 30 foizini

<b>Ozuqaviy qiymati ko'rsatkichi</b>	<b>Ozuqaviy mahsulotlarni ajratib turadigan belgi</b>	<b>Ozuqaviy mahsulotlar tamg'alanishida ajratib turadigan belgilar tasvirlanishi mumkin bo'lgan shartlar</b>
		tashkil qiladi.
Xolesterin	Kam miqdorda	Xolesterin qattiq ozuqaviy mahsulotlar uchun 100 g uchun 0,02 g dan ko'p bo'lmaslik yoki suyuqliklar uchun 100 ml uchun 0,01 g dan ko'p bo'lmaslik holda ozuqaviy mahsulotlarda qattiq ozuqaviy mahsulotlarda 100 g uchun 1,5 g dan ko'p bo'lmaslik to'yingan yog' kislotalari bo'lishi sharti bilan yoki 100 ml uchun 0,75 g dan ko'p bo'lmaslik suyuqlik uchun.
Xolesterin	Mayjud emas (xolesterinsiz)	Xolesterin qattiq ozuqaviy mahsulotlari uchun 100 g uchun 0,005 g dan yoki suyuqliklar 100 ml dan 0,005 g dan ko'p emas, agar ozuqaviy mahsulotlarda qattiq ozuqaviy mahsulotlarda 100 g uchun 1,5 g dan ortiq to'yingan yog' kislotalari bo'lishi sharti bilan yoki 100 ml uchun 0,75 g dan ko'p bo'lmaslik suyuqlik uchun
Omega - 3 yog'li kislotalar	Manba	Omega-3 yog'li kislotalar yig'indi miqdori 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda 0,2 g dan kam bo'lmasligi kerak. Yog'lar va o'simlik yoki hayvonlar moylari uchun esa omega-3 yog'li kislotalar yig'indi miqdori 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda 1,2 g dan kam bo'lmasligi kerak.
Omega - 3 yog'li kislotalar	Ko'p miqdorda	Omega-3 yog'li kislotalar yig'indi miqdori 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda 0,4 g dan kam bo'lmasligi kerak. Yog'lar va o'simlik yoki hayvonlar moylari uchun esa omega-3 yog'li kislotalar yig'indisi miqdori 100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda 2,4 g dan kam bo'lmasligi kerak.
Natriy (ozuqaviy osh tuzi, natriy xloridi)	Kam miqdorda	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda natriy miqdori (yoki osh tuzining ekvivalent miqdorida) 0,12 g dan ko'p emas. 100 ml suv (tabiiy mineral suvlardan tashqari) uchun natriy qiymati 2 ml dan ko'p emas.
Natriy (ozuqaviy osh tuzi, natriy xloridi)	Juda kam miqdorda	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda natriy miqdori (yoki osh tuzining ekvivalent miqdorida) 0,04 g dan ko'p emas. Ushbu nisbatdan suv (shu jumladan, tabiiy mineral suvlari) uchun foydalanishga yo'l

Ozuqaviy qiymati ko'rsatkichi	Ozuqaviy mahsulotlarni ajratib turadigan belgi	Ozuqaviy mahsulotlar tamg'alanishida ajratib turadigan belgilar tasvirlanishi mumkin bo'lgan shartlar
		qo'yilmaydi.
Natriy (ozuqaviy osh tuzi, natriy xloridi)	Mavjud emas	100 g qattiq ozuqaviy mahsulotda yoki 100 ml suyuqlikda natriy miqdori (yoki osh tuzining ekvivalent miqdorida) 0,005 g dan ko'p emas.